



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SAVOL BERISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH: METODIK YONDASHUV VA AMALIY MODELLASHTIRISH

Ahmedova Mastura Jamoliddinovna
Guliston davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda savol berish texnologiyasining ilmiy-metodik imkoniyatlari yoritiladi. Savol berish o'quvchini reproduktiv faoliyat (eslash, qayta aytish)dan produktiv faoliyat (tahlil qilish, yangicha talqin etish, muqobil yechim yaratish)ga olib o'tuvchi kognitiv mexanizm sifatida asoslanadi. Tadqiqotda kreativlikni faollashtiruvchi savollar kuzatuv, sabab-oqibat, "agar...", nuqtayi nazarni (qarashni) almashtirish, baholash va o'tkazish (hayotga ko'chirish) turlariga ajratilib, dars jarayonida qo'llash uchun 10–15 daqiqalik "savol orqali kreativlik" kichik-dars jarayoni taklif etiladi.

Shuningdek, savol berish texnologiyasini mualliflik metodlari bilan integratsiyalash yo'llari ham ko'rsatib beriladi: K–5B — Kreativ 5 bosqichli izlanish modeli, SDN — Savol–Dalil–Natija modeli, KGT — Kreativ g'oyalar transformatsiyasi usuli, KDT — Kreativ dizayn tafakkuri modeli, KOTT — Kreativ o'yinlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, KRH — Kreativ raqamli hikoyalash texnologiyasi. Bundan tashqari, o'quvchi javobini baholash uchun indikatorlar (savol sifati, g'oya ko'pligi, dalillash, originallik) asosida mezonli yondashuv tavsiya etiladi. Natijada savol berish texnologiyasi o'quvchini shunchaki "javob beruvchi" emas, balki "izlovchi va yaratuvchi" subyektga aylantirib, kreativ kompetensiyalarni barqaror shakllantirishga xizmat qilishi xulosalanadi.

Kalit so'zlar: savol berish usuli; ijodiy fikrlash; boshlang'ich sinf ta'limi; ona tili va o'qish darsi; ochiq savollar; sabab va oqibatni topish; boshqa yechim; fikrni dalil bilan aytish; hayotda qo'llash; savollar to'plami; kichik dars qismi; baholash mezonlari.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОСТАНОВКИ ВОПРОСОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ: МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ПРАКТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ

Ахмедова Мастура Джамолиддиновна
Гулистанский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В статье раскрываются научно-методические возможности технологии постановки вопросов в развитии креативного мышления у учащихся начальной школы на уроках родного языка и читательской грамотности. Постановка вопросов рассматривается как когнитивный механизм, переводящий ученика от репродуктивной деятельности (воспроизведение, пересказ) к продуктивной (анализ, интерпретация, создание альтернативных решений). В работе систематизированы типы вопросов, активизирующих креативность: наблюдательные, причинно-следственные, «а если...», смена перспективы, оценочные и перенос в жизненные ситуации. Предложена 10–15-минутная микро-модель «Креативность через вопросы», адаптируемая к структуре урока. Обоснована интеграция технологии вопросов с авторскими методами: K–5B — Креативная пятиэтапная модель исследовательского поиска, SDN — модель «Вопрос–Доказательство–Вывод», KGT —

метод трансформации креативных идей, KDT — модель креативного дизайн-мышления, KOTT — технология креативного геймифицированного обучения, KRH — технология креативного цифрового сторителлинга. Также представлены индикаторы оценивания ответов учащихся (качество вопроса, количество идей, аргументация, оригинальность). Делается вывод о том, что системное применение вопросов формирует ученика как активного исследователя и создателя, обеспечивая устойчивое развитие креативных компетенций.

Ключевые слова: задавание вопросов; творческое мышление; начальная школа; уроки родного языка и чтения; открытые вопросы; поиск причины и результата; другой вариант решения; обоснование (с доказательством); применение в жизни; набор вопросов; короткая часть урока; критерии оценивания.

DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH QUESTIONING TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS: METHODOLOGICAL APPROACH AND PRACTICAL MODELING

Ahmedova Mastura Jamoliddinova
Gulistan State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article explores the scientific and methodological potential of questioning technology for developing creative thinking in primary school mother tongue and reading literacy lessons. Questioning is conceptualized as a cognitive mechanism that moves learners from reproductive activities (recall and retelling) to productive activities (analysis, interpretation, and generating alternative solutions). The study categorizes creativity-enhancing questions into observation, cause-effect, “what if...”, perspective-taking, evaluation, and transfer (real-life application) types and proposes a 10–15 minute in-lesson micro-model titled “Creativity through Questioning.” The paper also explains how questioning can be integrated with the authorial instructional approaches: K-5B — Creative Five-Stage Inquiry Model, SDN — Question-Evidence-Conclusion Model, KGT — Creative Ideas Transformation Method, KDT — Creative Design Thinking Model, KOTT — Creative Gamified Learning Technology, and KRH — Creative Digital Storytelling Technology. In addition, it offers assessment indicators for students’ responses (question quality, idea fluency, evidence-based reasoning, and originality). The findings suggest that systematic questioning helps transform pupils from mere responders into active seekers and creators, thereby supporting the sustainable development of creative competencies.

Keywords: asking questions; creative thinking; primary school education; mother tongue and reading lessons; open questions; finding cause and result; another solution; giving evidence for an idea; using in real life; set of questions; short lesson part; assessment criteria.

Bugungi kompetensiyaga yo‘naltirilgan boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchini faqat matnni o‘qib berish yoki qoidani yodlash darajasida tayyorlash yetarli natija bermaydi. Chunki zamonaviy o‘quvchi matn mazmunini tushunish bilan birga, voqealardagi sabab-oqibat bog‘lanishini ko‘ra olishi, o‘z xulosasini matndan olingan dalil bilan asoslay bilishi hamda muammoni yangicha qarash bilan talqin qilib, bir nechta yechim ko‘rinishini taklif eta olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan savol berish texnologiyasi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchini reproduktiv faoliyatdan (borini qaytarish) produktiv faoliyatga (yangisini yaratish) olib o‘tuvchi metodik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Savollarni ochiq va muammoli shaklda berish o‘quvchida g‘oya ko‘pligi, moslashuvchan fikrlash, originallik hamda dalillash ko‘nikmalarini uyg‘otadi va shu orqali kreativ kompetensiyalarni barqaror shakllantirishga

yordam beradi. Mazkur maqolada savol turlari tartibga solinib, ularni dars jarayonida qo'llash uchun kichik dars jarayoni namunasi hamda baholash ko'rsatkichlari (indikatorlar) taklif etiladi.

Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi bugun eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Chunki o'quvchini faqat matnni o'qib berishga yoki qoidani yodlab aytishga o'rgatishning o'zi yetarli emas: u matnni tushunishi, voqeani tahlil qilishi, sabab-oqibatni topa olishi, fikrini dalil bilan isbotlay olishi va eng muhimi, o'ziga xos yangi g'oya ayta olishi zarur. Bu talablar kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim mazmuniga mos keladi: o'quvchi bilimni shunchaki "bilishi" emas, balki uni "qo'llashi", "izohlashi", "baholashi" va "yangicha tushuntirishi" ham kerak bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda innovatsion va integrativ yondashuvlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, darsni izlanish va fikrlash jarayoni sifatida tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi.¹

Shu jarayonda eng tabiiy, sodda va bir paytning o'zida eng kuchli usullardan biri — savol berishdir. Lekin savol berish doim ham "o'qituvchi so'raydi, o'quvchi javob beradi" degan oddiy ko'rinishda qolib ketmasligi kerak. Darsda savol faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki o'quvchining fikrini yo'naltiradigan, uni o'yinli usullarda qo'llaydigan, muammoli vaziyat yaratadigan va izlanishga undaydigan metodik vosita bo'lishi lozim. Ya'ni savol o'quvchini matn mazmuniga qayta-qayta murojaat qildiradi, sabab-oqibatni topishga majbur qiladi va xulosani dalil bilan asoslashga o'rgatadi.

Interfaol metodlarga oid metodik qo'llanmalarda ham savol-javob, munozara va guruhli muhokamalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini kuchaytirishi hamda dalillash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ta'kidlanadi.²

Kreativlikni rivojlantiradigan savol — bu o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan, bir nechta javob bo'lishi mumkinligini ko'rsatadigan va vaziyatga boshqacha qarashga undaydigan "nega?", "qanday?", "agar... bo'lsa-chi?" kabi savollardir. Bunday savollar "tayyor javob"ni eslatib yuboradigan savollardan farqli ravishda o'quvchini yangicha ko'rinishlar o'ylab topishga, fikrini kengaytirishga undaydi. Shuning uchun ham o'quvchining fikrlashi bu jarayonda shunchaki "topish" bilan cheklanmay, balki "yaratish"ga o'tadi. Pedagogik texnologiyalar haqida yozilgan manbalarda ham o'qituvchi beradigan savollarning sifati ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qilishi, ya'ni savol o'quvchini faollashtiradigan asosiy vositalardan biri ekani alohida ta'kidlanadi.³

Savolning ta'limdagi eng katta kuchi shundaki, u o'quvchi ongida tabiiy ravishda "muammoli vaziyat"ni yuzaga keltiradi. Ya'ni o'quvchi "javob tayyor" bo'lgan holatda emas, aksincha, "men buni qanday tushunsam bo'ladi?", "nima uchun shunday bo'ldi?" degan ichki izlanish holatiga kiradi. O'quvchi savolga javob izlar ekan, u faqat yodlaganini eslab aytib bermaydi: matnning ichiga qayta kiradi, kerakli jumlani topadi, lavhalarni solishtiradi, sabablarni izlaydi, natija qanday bo'lishi mumkinligini oldindan taxmin qiladi, so'ng o'z fikrini umumlashtirib xulosaga keladi. Bunda o'quvchi matnni "o'qib qo'yish" darajasidan "matn bilan ishlash" darajasiga ko'tariladi, bu esa o'qish savodxonligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Shu ma'noda savol o'quvchini reproduktiv (takrorlash, eslash, qayta aytish) faoliyatdan produktiv (yaratish, yangi g'oya chiqarish, muqobil yechim topish) faoliyatga olib chiqadigan metodik ko'priq vazifasini bajaradi. Masalan, "Qahramon nima qildi?" degan savol o'quvchini voqeani topishga undaydi, lekin "Qahramon nega shunday qildi?" degan savol uni fikr yuritishga majbur qiladi. "Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz?" yoki "Voqea boshqacha yakun topishi mumkinmi?" kabi savollar esa o'quvchini bevosita ijodiy yondashuvga olib kiradi. Natijada o'quvchining fikrlash jarayoni "topish" bilan cheklanmay, "yaratish" tusini oladi.

Ayniqsa, ochiq savollar o'quvchida bir vaqtning o'zida bir nechta kreativ ko'nikmalarni faollashtiradi. Birinchidan, g'oya ko'pligi kuchayadi: bitta savolga bitta javob emas, bir nechta ko'rinishi paydo bo'ladi. Ikkinchidan, moslashuvchanlik rivojlanadi: o'quvchi muammoni turli

nuqtayi nazardan ko'rishga, boshqa qarashni ham inobatga olishga o'rganadi. Uchinchidan, originallik rag'batlantiriladi: o'quvchi noodatiy, lekin mantiqan asosli yechim taklif qilishga intiladi. To'rtinchidan, elaboratsiya kuchayadi: o'quvchi fikrni "qisqa javob" tarzida emas, balki izohlab, boyitib, sababini aytib berishga harakat qiladi. Bularning barchasi o'quvchining nutqiy faolligini ham oshiradi, chunki u o'z fikrini gaplarda to'liq ifodalashga majbur bo'ladi.

Ochiq savollarni rejalashtirishda esa savollarning tartibi va muvozanati juda muhim. Metodik jihatdan quyi va yuqori kognitiv darajadagi savollar nisbatini saqlash tavsiya etiladi: avval kuzatish va tushunishga yo'naltirilgan savollar beriladi ("Matnda nima bo'ldi?", "Qahramon kim?", "Qayerda sodir bo'ldi?"), keyin sabab-oqibatni ochadigan savollar qo'yiladi ("Nega shunday bo'ldi?", "Qaysi sabab bunga olib keldi?"), shundan so'ng "agar..." kabi muqobil vaziyat yaratadigan savollar beriladi ("Agar qahramon boshqacha yo'l tutsa nima bo'lardi?"), oxirida esa baholovchi va xulosalovchi savollar bilan jarayon yakunlanadi ("Siz bu ishni qanday baholaysiz?", "Matndan qanday saboq oldingiz?"). Ana shunday ketma-ketlikda savollar berilganda o'quvchi fikri bosqichma-bosqich chuqurlashadi, javoblar esa oddiy qayta aytishdan dalillangan xulosa va ijodiy yechim darajasiga ko'tariladi.⁴

Dars jarayonida savol berishni tizimli yo'lga qo'yish uchun, eng avvalo, savollarni maqsadiga ko'ra to'g'ri tanlash muhim. Chunki har bir savol bir xil vazifani bajarmaydi: ayrim savollar o'quvchini matnni shunchaki o'qishga emas, balki diqqat bilan kuzatishga va voqealar tafsilotini payqashga o'rgatadi. Masalan, "Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?", "Matndan eng muhim 3 ta aniq belgi qaysi?", "Qahramonning kayfiyatini qaysi belgidan bildingiz?" kabi savollar o'quvchining e'tiborini "katta voqea"dan ko'ra, matn va rasm ichidagi kichik, lekin muhim ishoralarga qaratadi. Bunday savollar orqali o'quvchi ko'rish, ajratish va asosli aytish ko'nikmasini mashq qiladi: u "shunaqa tuyuldi" deb emas, "mana bu belgidan bildim" deb dalillashga o'tadi.

Bu bosqichda o'quvchi tafsilotni ko'rishga, matndagi mayda ishoralarni topishga, qahramonning holati yoki voqea joyini bildiradigan belgilarni ajratishga odatlanadi. Aslida kreativ fikrlashning boshlanishi ham ko'pincha shu yerda — ya'ni ko'pchilik e'tibor bermagan narsani payqashda namoyon bo'ladi. O'quvchi qanchalik diqqat bilan kuzatishni o'rgansa, keyingi bosqichlarda tahlil qilish, sabab-oqibatni topish va muqobil yechim yaratish ham shunchalik osonlashadi.

Keyingi guruh savollar esa matndagi sabab-oqibat bog'lanishini ochishga xizmat qiladi: "Nega bu voqea sodir bo'ldi?", "Qahramon nima uchun shunday qaror qildi?", "Agar shu sabab o'zgarsa, oqibat qanday bo'ladi?" kabi savollar o'quvchini shoshilmasdan mulohaza yuritishga, voqeani yuzaki emas, ichki mantiqi bilan tushunishga o'rgatadi. Bu yerda o'quvchi "nima bo'ldi?" degan savoldan "nega shunday bo'ldi?" degan savolga ko'tariladi, ya'ni fikrlash chuqurlashadi.

Bunday savollar o'quvchiga sabablarni ajratish, ularni matndan topilgan dalillar bilan bog'lash va natijani izohlash imkonini beradi. Masalan, o'quvchi bir lavhani eslab qolish bilan cheklanmay, o'sha lavhaga olib kelgan holatni, qahramonning niyatini yoki vaziyatning ta'sirini tushuntirib bera boshlaydi. Natijada o'quvchining javobi ham "bir jumla" bo'lib qolmay, asta-sekin dalilga tayangan izoh va xulosaga aylanadi.

Interfaol hamda innovatsion metodlarda aynan shunday "mantiqiy zanjir" tuzish (sabab → dalil → oqibat → xulosa) o'quvchini faqat o'qish jarayonida emas, o'qiganini anglash va izohlash jarayonida ham faol qiladigan muhim bosqich sifatida qaraladi.²

Kreativlikni eng kuchli ochib beradigan savollardan yana biri — bu "agar..." savollaridir. Chunki bunday savol o'quvchini tayyor yo'l bilan yurishga emas, vaziyatni boshqacha tasavvur qilishga majbur qiladi. Masalan, "Agar qahramon boshqacha yo'l tutganida nima bo'lardi?", "Agar voqea boshqa joyda bo'lsa-chi?", "Agar siz muallif bo'lsangiz, qaysi joyini o'zgartirardingiz?" kabi savollar o'quvchini odatdagi fikrlash doirasidan chiqarib, yangi yo'l izlashga undaydi. Bu yerda o'quvchi bitta javobni topish uchun emas, balki bir nechta ehtimolni

ko‘rib chiqish uchun fikr yuritadi.

“Agar...” savollari o‘quvchining tafakkurida “xilma-xil qarashlar maydoni”ni ochadi: u voqeani bir yoqlama ko‘rmaydi, balki “yana qanday bo‘lishi mumkin?” degan savol bilan fikrini kengaytiradi. Natijada o‘quvchi voqeani davom ettirish, yangi yakun yaratish, muammoni yangicha hal qilish, qahramonning tanlovini o‘zgartirib ko‘rish kabi ijodiy harakatlarga o‘tadi. Aslida kreativ fikrlash ham shundan boshlanadi: bir holatni birgina yo‘l bilan emas, bir nechta yo‘l bilan tasavvur qilish va mantiqan asosli yangi yechim taklif eta olish.

Eng muhim jihati shundaki, “agar...” savollari darslikdagi odatiy topshiriqlarni ham tabiiy ravishda kuchaytiradi. Masalan, “reja tuzish” topshirig‘ida o‘quvchi endi faqat matndagi ketma-ketlikni yozib qo‘ymaydi, balki rejaning boshqa ko‘rinishlarini ham o‘ylab ko‘radi: “voqeani boshqacha boshlasa bo‘ladimi?”, “yakunni o‘zgartirsam reja qanday bo‘ladi?” degan fikrlar paydo bo‘ladi. “Davom ettirish” topshirig‘ida ham o‘quvchi bitta davom bilan cheklanmay, 2–3 xil davom ko‘rinishini tasavvur qila boshlaydi. “Xulosa chiqarish”da esa faqat umumiy gap yozish emas, balki “qaysi yakun to‘g‘riroq?”, “qaysi yechim foydaliroq?” kabi baholash elementlari ham kirib keladi. Shu tariqa “agar...” savollari o‘quvchini oddiy reproduktiv javoblardan produktiv, ijodiy javoblarga bosqichma-bosqich olib chiqadigan kuchli metodik vositaga aylanadi.

Shuningdek, “Boshqa nuqtayi nazardan o‘ylashga undaydigan savollar o‘quvchilarning fikrini yanada kengaytiradi.” Masalan, “Bu voqeani boshqa qahramon ko‘zi bilan aytsak nimalar o‘zgaradi?”, “Qahramon shu paytda nimani o‘ylagan bo‘lishi mumkin?”, “Qarama-qarshi fikrdagi odam nima derdi?” kabi savollar o‘quvchini voqeaga birgina tomondan emas, turli tomondan qarashga o‘rgatadi. O‘quvchi endi “menimcha shunday” deyish bilan cheklanmay, “boshqalar buni qanday ko‘rishi mumkin?” degan savolni ham o‘rtaga qo‘yadi.

Bunday savollar o‘quvchini empatiyaga — ya‘ni boshqaning holatini tushunishga olib kiradi. O‘quvchi qahramonning kayfiyati, niyati, qo‘rquvi yoki umidi haqida o‘ylay boshlaydi, voqeani ichidan “his qilib” ko‘rishga harakat qiladi. Natijada u matndagi sabablarni ham chuqurroq anglaydi: “nega u shunday dedi?”, “nega bu qarorni qabul qildi?” kabi savollarga javob izlash osonlashadi. Bu jarayon kreativ fikrlashni ham kuchaytiradi, chunki o‘quvchi voqeani qayta tasavvur qiladi, dialogni yangicha quradi, matnga boshqa ko‘z bilan qarab, yangi g‘oya topishi mumkin bo‘ladi.

Boshqa nuqtayi nazardan o‘ylashga undaydigan savollari tarbiyaviy jihatdan ham juda qimmatli. O‘quvchi boshqani tushunishga urinib ko‘rsa, u shoshma-shosharlik bilan “to‘g‘ri– noto‘g‘ri” hukm chiqarishga oshiqmaydi. Aksincha, avval sababni izlaydi, vaziyatni o‘lchaydi, keyin mulohaza bilan xulosa qiladi. Bu esa o‘quvchida bag‘rikenglik, sabr, muloqot madaniyati va adolatli baholash ko‘nikmalarini ham asta-sekin shakllantiradi.

Savol berishning yana bir muhim tomoni shundaki, u o‘quvchini asta-sekin dalillashga o‘rgatadi. Chunki ko‘p bolalar fikrini aytadi, lekin “nega shunday deb o‘ylaysan?” degan savolga kelganda to‘xtab qoladi. Shuning uchun darsda “Siz qahramonni qo‘llaysizmi? Nega?”, “Eng to‘g‘ri yechim qaysi? 2 ta dalil keltiring”, “Qaysi fikrni tanlaysiz? Misol bilan isbotlang” kabi savollar berilganda o‘quvchi shunchaki fikr bildirib qo‘ymaydi, balki o‘sha fikrni asoslashga majbur bo‘ladi. Bu esa o‘quvchining javobini “yoqdi–yoqmadi” darajasidan chiqarib, matnga tayanib, izoh berish darajasiga olib keladi.

Dalillashga o‘rgatadigan savollar o‘quvchida juda muhim odatni shakllantiradi: u fikr aytishdan oldin matnni yana bir bor ko‘zdan kechiradi, kerakli jumlani yoki lavhani topadi, misol keltiradi va shundan keyingina xulosa qiladi. Natijada o‘quvchi “menimcha” degan gapni ko‘proq “matnda shunday deyilgan”, “qahramon mana bunday qilgan” kabi dalilga tayangan izoh bilan to‘ldira boshlaydi. Bu ko‘nikma keyingi bosqichlarda ham juda kerak bo‘ladi: yozma bayon, xulosa yozish, munozarada qatnashish, hatto oddiy topshiriqlarga javob berishda ham o‘quvchi aniqroq va ishonchliroq fikr bildiradi.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha manbalarda ham o'quvchi faolligini kuchaytirishda aynan dalil va isbotga tayanadigan savollar alohida ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.³ Chunki bunday savollar o'quvchini tayyor javobni aytib berishga emas, matnni tahlil qilib, asosli fikr qurishga o'rgatadi.

Shu bilan birga, "Bu g'oyani hayotda qayerda qo'llash mumkin?", "Sinfimizda shunga o'xshash holat bo'lsa nima qilamiz?" kabi savollar o'quvchini olgan bilimni faqat eslab qolishga emas, uni hayotda qo'llashga ham undaydi. O'quvchi matndagi fikrni o'z tajribasi bilan bog'laydi, real vaziyatni ko'z oldiga keltiradi va "men bunday paytda nima qilardim?" degan savolga javob topadi. Shu tariqa matn mazmuni "kitobda qolib ketmaydi", balki o'quvchi ongida amaliy xulosa, hayotiy qoida yoki yo'l-yo'riq sifatida mustahkamlanadi.

Bunday savollar o'qish savodxonligi darslari uchun ayniqsa muhim, chunki darsning asosiy maqsadi matnni shunchaki o'qitish emas, balki matndan hayotiy ma'no chiqarishdir. O'quvchi matn asosida o'ziga tegishli xulosa qilsa, u o'qiganini yaxshiroq eslab qoladi, uni izohlab bera oladi va eng muhimi — kerakli vaziyatda foydalanishga tayyor bo'ladi.²

Savol berishni darsda samarali qo'llash uchun albatta alohida katta vaqt ajratish shart emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, darsning o'zida 10–15 daqiqalik kichikgina "savol orqali kreativlik" bo'limi ham juda yaxshi natija beradi. Bu bo'limni darsning istalgan qismiga — matn o'qilgandan keyin, tahlil bosqichida yoki yakuniy mustahkamlashda ham qo'shish mumkin. Muhimi, u aniq tartib va oddiy qadamlar asosida olib boriladi.

Bunda o'qituvchi avval bitta kuchli, ochiq savol beradi. Masalan: "Agar siz qahramon o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutardingiz?" yoki "Bu vaziyatning yana qanday yechimi bo'lishi mumkin?" Keyin o'quvchilardan shu savolga kamida 3 xil javob aytishni so'raydi. Bu yerda maqsad "eng to'g'ri javob"ni topish emas, balki avvalo javoblar sonini ko'paytirishdir. Chunki kreativ fikrlash ko'pincha aynan shundan boshlanadi: birinchi fikr bilan cheklanmay, ikkinchi va uchinchi variantlarni ham izlash.

Shundan so'ng o'quvchilar aytgan javoblarini matndan bir lavha yoki hayotdan bir misol bilan asoslaydi. Ya'ni o'quvchi "men shunday qilardim" deb qo'ya qolmay, "matnda mana bu lavha bor", "hayotda bunaqa holatda shunday bo'ladi" kabi dalil keltirib gapiradi. Bu bosqich o'quvchini fikr bildirishdan fikrni asoslashga olib chiqadi.

Keyingi qadamda sinf birgalikda "eng noodatiy" va "eng ishonarli" javobni tanlaydi. Bunda ham "yoqdi" yoki "yoqmadi" mezonini yetarli bo'lmaydi — tanlov albatta dalil bilan bo'lishi kerak: "nima uchun bu javob noodatiy?", "qaysi dalil uni ishonchli qildi?" Shu tariqa o'quvchilar baholash va taqqoslash ko'nikmasini ham mashq qiladi.

Yakunda esa har bir o'quvchi "Demak..." deb boshlanadigan bitta xulosa jumla yozadi. Bu juda oddiy ko'rinadi, lekin aynan shu kichik yozma qadam o'quvchini fikrini tartibga solishga, umumlashtirishga va aniq xulosa qilishga o'rgatadi. Natijada 10–15 daqiqalik ushbu bo'lim o'quvchini kuzatish → tahlil → dalil → muqobil yechim → xulosa zanjiri bo'yicha izchil olib boradi. Interfaol uslublarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalarda ham o'quvchi shunchaki "gapirishi" emas, balki aynan asoslab gapirishi muhim ekani ta'kidlanadi.⁵

Savol berish texnologiyasining yana bir muhim afzalligi shundaki, u mualliflik metodlarimiz bilan juda oson va tabiiy integratsiyalanadi. Ya'ni savol darsda alohida "qo'shimcha" bo'lib qolmaydi, aksincha, har bir metodning ichki mexanizmini ishga tushiradigan, o'quvchini bosqichma-bosqich fikrlashga olib kiradigan qulay vositaga aylanadi. Masalan, K–5B — Kreativ 5 bosqichli izlanish modelida savol qiziqitirish bosqichida o'quvchiga motivatsiya beradi ("Sizningcha, bu matn nima haqida bo'lishi mumkin?"), izlanish bosqichida muammo qo'yadi ("Nega voqea shunday kechdi?"), baholash bosqichida esa o'quvchini o'z-o'zini tahlil qilishga undaydi ("Men bugun nimani tushundim?", "Qanday dalil keltira oldim?").

SDN — Savol–Dalil–Natija modelida savol butun jarayonning markazida turadi: avval savol qo'yiladi, keyin o'quvchi matndan dalil topadi, so'ng natija — ya'ni xulosa yozadi. Bu

model o'quvchini "fikir aytish"dan "dalil bilan asoslash"ga o'tkazadi, chunki har bir javob matnning o'ziga tayanib quriladi.

KGT — Kreativ g'oyalar transformatsiyasi usulida esa savol transformatsiya jarayonini ishga tushiruvchi "kalit" vazifasini bajaradi. "Agar... bo'lsa-chi?", "Boshqa nuqtayi nazardan o'yla", "Janrni o'zgartir" kabi savollar o'quvchini matnni boshqa yo'sinda ko'rishga, uni qayta talqin qilishga, yangi variant yaratishga olib kiradi. Natijada o'quvchi matn bilan ijodiy ishlaydi: u matnni shunchaki qayta aytmaydi, balki o'zgartirib, boyitib, yangi ko'rinishda qayta quradi.

KDT — Kreativ dizayn tafakkuri modelida savol avvalo muammoni aniq qo'yishga xizmat qiladi ("Asl muammo nimada?"), keyin esa yechimga yo'naltirilgan savollar orqali o'quvchini dastlabki ko'rinishini yaratish va uni sinovdan o'tkazish bosqichiga olib boradi ("Qanday yechim taklif qilamiz?", "Uni qanday sinab ko'ramiz?", "Qaysi jihatini yaxshilash mumkin?"). Bu jarayonda savollar o'quvchini izlanishdan amaliy natijaga olib chiqadigan yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi.

KOTT — Kreativ o'yinlashtirilgan ta'lim texnologiyasida savollar o'yinga aylanadi: "Eng yaxshi savol", "Savol top — dalil top", "Savol-javob bellashuvi" kabi topshiriqlar o'quvchini tabiiy ravishda faollashtiradi. O'yin elementi sababli o'quvchi erkinroq fikr bildiradi, savol topishga ham, dalil keltirishga ham qiziqadi, darsdagi ishtiroki kuchayadi.

KRH — Kreativ raqamli hikoyalash texnologiyasida esa savol o'quvchi yaratadigan raqamli mahsulotning "ssenariy nuqtasi"ga aylanadi. "Men nimani bildim?", "Men nimani bilmoqchiman?" kabi savollar asosida o'quvchi matn mazmunini o'z so'zi bilan qayta tuzadi, unga shaxsiy munosabatini qo'shadi va natijada raqamli hikoya (video/taqdimot) shaklida ijodiy mahsulot yaratadi.

Bunday integratsiyaning afzalligi shundaki, o'qituvchi bir darsning o'zida ham tushunish va qayta aytishga asoslangan fikrlash elementlarini — "BDFK (Boshlang'ich Darajadagi Fikrlash Ko'nikmalari)"ni, ham tahlil, baholash, yaratishga yo'naltirilgan fikrlash elementlarini — "YDFK (Yuqori Darajadagi Fikrlash Ko'nikmalari)"ni uyg'unlashtira oladi. Ya'ni o'quvchi avval matnni anglaydi, keyin dalil topadi, so'ng muqobil yechim taklif qiladi va yakunda xulosa chiqaradi. Shu tariqa savol berish texnologiyasi mualliflik metodlarimizni bir butun tizimga bog'lab, darsning mazmunini ham, natijasini ham kuchaytiradi.⁴

Albatta, savol berish orqali kreativlikni rivojlantirishda baholash ham aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Bu yerda "javob to'g'rimi yoki noto'g'rimi" degan oddiy tekshiruv yetarli bo'lmaydi. Chunki ochiq va muammoli savollarda ko'pincha bitta "mutlaq to'g'ri" javob bo'lmaydi. Asl e'tibor o'quvchining javob berish jarayoniga — u qanday o'yladi, qanday dalil topdi, nechta variant ayta oldi, fikrini qay darajada boyitdi — ana shu kreativ faoliyatga qaratilishi kerak.

Shuning uchun baholashda o'quvchining aynan fikrlash va izlanish jarayonini ko'rsatib beradigan aniq indikatorlar zarur. Amaliyotda 4 ta indikator eng qulay va tez ishlaydi. Birinchisi — savol sifati: o'quvchi bergan yoki tanlagan savol ochiqmi, muammolimi, o'ylashga majbur qiladimi? Ikkinchisi — g'oya ko'pligi: o'quvchi birgina javob bilan cheklanmadimi, kamida 2–3 xil yechim yoki fikr ayta oldimi? Uchinchisi — dalillash: o'quvchi fikrini matndan lavha, jumla mazmuni yoki hayotiy misol bilan asoslay oldimi? To'rtinchisi — originallik: javobda noodatiy yondashuv, boshqacha qarash yoki yangi taklif bormi?

Bu indikatorlarning afzalligi shundaki, ular o'qituvchiga baholashni tez va aniq qilishga yordam beradi, o'quvchiga esa "qayerim kuchli, qayerimni yaxshilashim kerak?" degan savolga javob beradi. Masalan, o'quvchi 3 ta variant aytgan bo'lishi mumkin, lekin dalil keltirmagan bo'lsa — demak, keyingi darsda dalillash qismi kuchaytiriladi. Yoki o'quvchi dalil keltiradi, lekin fikri hammanikiga o'xshash bo'lsa — demak, originallikni rag'batlantiradigan "Nuqtayi nazarni almashtir", "agar..." savollari ko'proq beriladi.

Bu yondashuv pedagogik texnologiyalar manbalarida ta'kidlanadigan jarayonli baholash

g'oyasiga ham mos keladi: ya'ni faqat yakuniy natija emas, balki o'quvchining fikrlash jarayoni ham qadrlanadi.³ Shu tariqa baholash o'quvchini "xato qildim" degan qo'rquvga emas, "qanday yaxshiroq fikrlashim mumkin?" degan o'sishga yo'naltiradi va savol orqali kreativlikni rivojlantirishni yanada samarali qiladi.

Indikatorlarni 5–4–3–2 ballik tizimga moslashda quyidagicha sodda va tushunarli mezon qo'yish mumkin. Bunda baholashning markazida o'quvchining javobi nechta ko'rinishga ega ekani, dalilga tayangan-tayanmagani va noodatiyligi turadi.

5 ball — o'quvchi kamida 3 ta va undan ko'p muqobil javob ayta oladi, fikrini matndan aniq lavha/jumla mazmuni bilan isbotlaydi va javobida noodatiy yondashuv (originallik) ko'rinadi. Ya'ni u nafaqat ko'p fikr aytadi, balki har birini asoslaydi va yangi g'oya bilan boyitadi.

4 ball — o'quvchi 2–3 ta javob turini taklif qiladi, dalil mavjud, ammo javobda originallik unchalik kuchli emas: ko'proq odatiy yechimlar atrofida qoladi. Shunga qaramay, fikr mantiqan to'g'ri va matnga tayanadi.

3 ball — o'quvchi 1–2 ta variant aytadi, lekin dalil yuzaki bo'ladi: matndan aniq dalil keltirmaydi yoki misol umumiy gap darajasida qoladi. Javob ko'proq "tushundim" deyish bilan cheklanadi, izoh va asos yetarli emas.

2 ball — o'quvchi dalilsiz javob beradi, ko'pincha "tayyor javob"ni takrorlaydi, xilma-xillik deyarli yo'q. Fikr matn bilan bog'lanmagan yoki juda qisqa, sababini tushuntirishga urinmaydi.

Shu mezonlarni 4 darajali tizimga moslashtirganda, o'quvchi javobining xilma-xilligi va dalilliligi bosqichma-bosqich ortib boradi: "Ilk qadam qo'yuvchi" darajada javob ko'proq tayyor va dalilsiz bo'lsa, "Bosqichma-bosqich rivojlanuvchi" darajada 1–2 variant va sodda asos paydo bo'ladi; "Barqaror o'suvchi" darajada javoblar xilma-xilligi ko'payib, dalil aniqroq bo'ladi; "Ijodiy cho'qqi" darajada esa o'quvchi bir nechta muqobil yechimni dalil bilan asoslab, noodatiy yondashuvni ham ko'rsata oladi.

Xulosa qilib aytganda, savol berish texnologiyasi boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metodik yo'llaridan biri hisoblanadi. To'g'ri tanlangan savol o'quvchini faollashtiradi, muammoli vaziyatni ochadi, boshqacha fikrlashni uyg'otadi, fikrini dalil bilan asoslashga o'rgatadi va oxir-oqibat hayotiy xulosaga olib keladi. Eng muhimi, savol o'quvchini shunchaki "javob beruvchi" emas, balki o'ylovchi va izlovchi subyektga aylantiradi. Bu esa ko'zlangan asosiy maqsad — kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish natijasiga to'liq mos keladi.

Maqolada savol berish texnologiyasining boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari asoslandi. Xususan, ochiq va muammoli savollar o'quvchini "tayyor javob"ni topishdan ko'ra, voqea va g'oyalarni xilma-xil ko'rinishda ko'rib chiqish, dalil izlash va muqobil yechim yaratishga yo'naltirishi bilan ajralib turadi. Kreativlikni faollashtiruvchi savollarni (kuzatuv, sabab-oqibat, "agar...", nuqtayi nazarni almashtirish, baholash va bilimni hayotga tatbiq qilish) tizimli qo'llash o'quvchida g'oya ko'pligi, moslashuvchanlik, originallik hamda elaboratsiya ko'nikmalarining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan dars tarkibiga kiritiladigan 10–15 daqiqalik "savol orqali kreativlik" kichik-modeli (ochiq savol → 3 xil javob → dalil → tanlov → xulosa) o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirishi, matn bilan ishlash sifatini chuqurlashtirishi hamda darsni ortiqcha vaqt sarflamasdan samarali tashkil etish imkonini berishi bilan metodik jihatdan qulay yechim sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, savol asosida baholashda "to'g'ri/noto'g'ri" yondashuvi bilan cheklanmasdan, javobning kreativ sifatini o'lchaydigan indikatorlar — savol sifati, g'oya ko'pligi, dalillash va originallik —dan foydalanish o'quvchining kreativ rivojlanishini aniqroq tashxis qilish va keyingi darslarda individual yondashuvni rejalashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N.. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2013.
2. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z.. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi: metodik qo'llanma. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. — 108 b.
3. Azizxo'jayeva N.N.. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. — 160 b.
4. Ishmuhamedov R.. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubi. — Toshkent: RBIMM, 2008.
5. Azizxo'jayeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat [Pedagogical technologies and pedagogical mastery]. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
6. Ishmuhamedov, R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubi [Methodology for applying interactive methods and pedagogical technologies]. Tashkent: RBIMM. 2008.
7. Mavlonova, R., & Rahmonqulova, N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi [Primary education pedagogy: innovation and integration]. Tashkent. 2013.
8. Ro'ziyeva, D., Usmonboyeva, M., & Xoliqova, Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi [Interactive methods: essence and application]. Tashkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2013.